Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

BADIIY MATNDA "VATAN" VA "ERK" KONSEPTLARINING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Shaxloxon TURSINBAYEVA*
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Tayanch doktoranti
✉ shaxloxontursinbayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tarixiy romani misolida "vatan" va "erk" makrokonseptlarining lisoniy-semantik xususiyatlari hamda badiiy-estetik funksiyalari kognitiv va lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda konseptual, kontekstual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar mazkur konseptlarning leksik, frazeologik va obrazli vositalar orqali ifodalanib, asarda o'zbek xalqining milliy dunyoqarashi, qadriyatlari va davlatchilik g'oyalarini aks ettiruvchi mazkur konseptlarning badiiy matnda milliy qadriyatlarni ifodalashdagi lisoniy imkoniyatlari yoritildi.

Kalit so'zlar

Konsept, badiiy diskurs, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743015

KIRISH

XXI asr tilshunosligida tilni inson tafakkuri, madaniyati va milliy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etishga asoslangan kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya yetakchi ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida rivojlanmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, til birliklari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi va mental xususiyatlarini mujassamlashtiruvchi konseptual mazmunni ham ifodalaydi. Shu jihatdan badiiy matn konseptlarning lisoniy voqelanishini, ularning semantik tuzilishi va milliy-madaniy mazmunini tadqiq etish uchun eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy romanlarda xalqning davlatchilik an'analari, ozodlik g'oyasi, Vatanga sadoqat va milliy o'zlik haqidagi tasavvurlari badiiy obrazlar hamda til vositalari orqali tizimli ifodalanadi.

Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asari Amir Temur va temuriylar davri tarixini badiiy talqin etgan yirik epik asarlardan biri bo'lib, unda o'zbek xalqining milliy tafakkuri va qadriyatlar tizimi chuqur aks ettirilgan. Asarda "vatan" va "erk" konseptlari syujet, obrazlar tizimi hamda muallif diskursini birlashtiruvchi asosiy g'oyaviy-konseptual birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur konseptlar turli leksik birliklar, frazeologizmlar, ramziy obrazlar vositasida ifodalanib, milliy mentalitetning muhim qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Shu bois ularning lisoniy-semantik xususiyatlarini kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning obyekti Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani, predmeti esa unda voqelashgan "vatan" va "erk" konseptlarining lisoniy-semantik xususiyatlaridir. Tadqiqotning maqsadi mazkur makrokonseptlarning leksik-semantik maydonini aniqlash, ularning konnotativ mazmuni, konseptual tuzilishi hamda badiiy-estetik funksiyalarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun konseptlarni ifodalovchi til birliklari ajratildi, semantik guruhlarga tasniflandi hamda konseptual, komponent va kontekstual tahlil metodlari asosida ularning milliy-madaniy mazmuni tavsiflandi. Tadqiqot natijalari badiiy matnda konseptlarning lisoniy voqelanish mexanizmlarini aniqlash, o'zbek tilining konseptosferasini tavsiflash va yozuv-

chining individual badiiy tafakkurini yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tilshunosligida inson tafakkuridagi lisoniy dunyo manzarasini, xususan, konseptual metafora nazariyasini tadqiq etish J. Lakoff va M. Johnson[1] kabi kognitologlarning ishlaridan boshlangan bo‘lib, konseptlar inson tajribasini til tizimida kodlovchi mental struktura sifatida baholanadi. Konseptning lingvokulturologik modelini yaratish, lisoniy birliklarda milliy-madaniy kodlarning aks etish qonuniyatlari esa V. Karasik[2] hamda G. Slishkin[3] kabi olimlarning tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan.

O‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning, xususan, kognitiv tilshunoslikning nazariy-metodologik poydevori professor Sh. Safarov[4] tomonidan yaratildi. Olim o‘zining fundamental tadqiqotlarida konseptual tizimning moddiy dunyo idroki bilan bog‘liqligini, konseptual ma’lumotlarning tilda voqelanish mexanizmlarini ochib berdi. Badiiy matn doirasida konseptlarning shakllanishi, milliy va konnotativ ma’no qirralarining namoyon bo‘lish muammolari N. Mahmudov[5] hamda matnning lingvokulturologik xususiyatlarini pretsedent va milliy birliklar vositasida tadqiq etgan D. Xudoyberganova[6] tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida badiiy matn konseptosferasini tadqiq etish ko‘lami yanada kengaydi. Xususan, D. U. Ashurova va M. R. Galieva[7]ning ilmiy ishlarida badiiy matnning kognitiv va lingvokulturologik tabiati stilistik hamda matn kognitologiyasi aspektida yangi bosqichga olib chiqildi. Ularning tadqiqotlari badiiy matndagi makrokonseptlarning mikrokonseptlar bilan ierarxik munosabatini ochib berishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek tilining milliy dunyo manzarasida “vatan” konseptining lisoniy-semantik va strukturaviy xususiyatlari, uning kognitiv semantika kengayishidagi o‘rni maxsus o‘rganilgan. Biroq ushbu ishlarda ko‘proq umumkonseptual, publisistik yoki she’riy matnlar tahliliga e’tibor qaratilgan.

Muhammad Ali ijodi, xususan, uning muhtasham “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasi adabiyotshunos olim U.Normatov[8] tomonidan janr tabiati, tarixiy haqiqat interpretatsiyasi va personajlar psixologizmi nuqtayi nazaridan atroflicha o‘rganilgan. Ammo shu vaqtgacha asar leksikasining konseptual salohiyati tilshunoslik tomonidan maxsus o‘rganilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning empirik materiali sifatida Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romanining matni xizmat qildi. Ishda til birliklarining mohiyatini ochish uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

- konseptual tahlil: matndagi mental tuzilmalarni lisoniy qobiqqa ko‘chirish qonuniyatlarini aniqlash uchun;
- semantik va kontekstual tahlil: so‘zlarning matn ichidagi konnotativ ma’no qirralarini aniqlash uchun;
- komponent tahlili: lug‘aviy birliklarning sematik tarkibini (semalarini) ajratish uchun.

Tadqiqotda dastlab o‘rganilayotgan tushunchaning (konseptning) eng asosiy va unga qo‘shimcha bo‘lgan qatlamlari ajratib olindi. Shundan so‘ng, ushbu so‘z guruhlarining ma’nodoshlik xususiyatlari yoritilib, ularning matndagi estetik va badiiy vazifalari ko‘rsatib berildi.

NATIJALAR

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasi (1-kitob “Jahongir Mirzo”[9], 2-kitob “Umar-

[1]Лакофф Ж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал URSS, 2004. – С. 56.
[2]Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 103.
[3]Слышкин Г. Г. От текста к концепту: Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Academia, 2000. – С. 42.
[4]Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor, 2006. – B. 15.
[5]Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 3. – B. 5.
[6]Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tahlili. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 78.
[7]Ashurova D. U., Galieva M. R. Stylistics of Literary Text. – Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – P. 112.
[8]Normatov U. Qodiriy bog‘i. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 201.
[9]Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. 1-kitob: Jahongir Mirzo. – Toshkent: Davr press, 2019. – 448 b.

shayx Mirzo”[10]) matni ustida olib borilgan kognitiv-semantik va lingvokulturologik tahlillar asar matnida “vatan” va “erk” makrokonseptlari tizimli leksik-frazeologik maydon hosil qilganligini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu semantik maydonning konseptual markazini *vatan, yurt, tuproq, zamin, erkinlik* so‘zlari tashkil etsa, uning yaqin va uzoq periferiyasini tarixiy-arxaik, metaforik hamda individual-badiiy birliklar boyitib keladi.

Tadqiqot natijasida “vatan” va “erk” konseptlarining asardagi lisoniy-semantik voqelanishi quyidagicha tizimlashtirildi:

1. “Vatan” konseptual maydonining lisoniy-badiiy xususiyatlari.

Asarda “vatan” tushunchasi shunchaki jo‘g‘rofiy-siyosiy hudud chegarasidan chiqib, iymon-e’tiqod, ajdodlar merosi va milliy g‘urur tushunchalari bilan kognitiv darajada sintezlashadi. Matnda ushbu konsept asosan barqaror epitetlar va ko‘chimlar vositasida chuqurlashtiriladi:

- **Konseptual yadro birliklari:** *“muqaddas tuproq”, “ajdodlar qo‘nim topgan zamin”* singari birikmalar tuproq semasiga ilohiylik va e’zoz tuyg‘usini yuklaydi.
- **Individual-badiiy kengayish:** Amir Temurning Amir Husaynga poytaxtni Solisaroydan makkorlik bilan Balxga ko‘chirish xatosi xususida aytgan fikrlari Vatanning muqaddas markazi va milliy o‘zlik timsoli sifatidagi barqarorligini lisoniy kodlaydi: *“...o‘z yurtingni tashlab begona yerda vatan tutmak koni xatardur, illo boshingga bir ish tushsa, yot odamlar jimgina tomosha qilmakdan o‘zgaga yaramaslar. Oqibati sizga ma’lumdir”* (1-kitob, 64-bet).
- **Ideologik periferiya:** Asarning umumiy diskursida Vatan tushunchasi *“mamlakat sultoni”, “parishon mamlakat zabti”* va *“Turon zamin”* semalari orqali kengayib, davlatning ulug‘vorligi va yaxlitligini ifodalovchi makrostrukturaga aylanadi.

2. “Erk” konseptlarining semantik voqelanishi.

“Erk” makrokonsepti asar matnida mustaqillik va ijtimoiy adolat tushunchalari bilan bevosita bog‘lanadi. Muallif istibdod va milliy qaramlikka qarshi ichki isyonni frazeologik birliklar hamda ramziy detallar orqali lisoniy aks ettirgan:

- **Frazeologik periferiya:** Zolimlarga bo‘ysunmaslik, milliy g‘ururni himoya qilish harakati *bosh ko‘tarmoq, nomusni saqlamoq, kishanlarni parchalash* singari frazemalar tizimida voqelanadi.
- **Falsafiy-huquqiy diktumlar:** Temurbek nutqidagi *“Shariat qonuniga binoan, fitnachini daf aymak vojib sanalur, alal-oqibat savob hisoblanur. Bas, Amir Husaynni gumdon etmak eng avvalgi zaruratdir!”* (1-kitob, 43-bet) jumlasi yurt yelkasini fitnadan ozod qilish – erkning bosh sharti ekanligini kognitiv asoslaydi.
- **Poetik diskurs:** Adolat va erkka intiluvchi qahramonlar ijrosidagi she’riy parcha konseptning badiiy tafakkurdagi o‘rnini ko‘rsatadi: *“Na bor boshda panoh va na bir soya, Adolatdur men tanlag‘on hidoya!”* (1-kitob, 54-bet).
- **Individual isyon semasi:** To‘yxo‘ja o‘g‘lonning O‘rusxonning kalondimog‘ligi va tazyiqiga qarshi aytgan kinoyali allegoriyasi erk uchun kurashuvchi isyonkor shaxs xarakterini ochib beradi: *“Moskoviyaga yoki Movaraunnahrga yurish xuddi o‘z iniga sig‘magan, dumiga g‘alvir bog‘lagan sichqonning holini eslatadur”* (2-kitob, 15-bet).

3. Saltanat ramzlari va jahongirlik g‘oyasining konnotativ tahlili.

Erk va milliy mustaqillik g‘oyasi asar semantikasida oliy hokimiyat va “Ulug‘ saltanat” timsollari bilan tutashadi:

- **Moddiy-lisoniy kodlar:** Pir Mir Sayyid Baraka tomonidan Sohibqironga topshirilgan *“arslon terisi qoplangan mis nog‘ora”* va *“to‘q havorang (ko‘k) bayroq”* shunchaki harbiy detallar emas, balki milliy erk,

[10]Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. 2-kitob: Umarshayx Mirzo. – Toshkent: Davr press, 2019. – 413 b.

davlat mustaqilligi va olamshumul dovrug‘ning lingvokulturologik belgilaridir: *“Ushbu havorang bayroqni sizga berurmen, toki davlatingiz, bo‘y-bastingiz olamga ayon bo‘lsun! ... Ular saltanat va podsholiq alomatlaridur”* (1-kitob, 57-bet).

- **Umuninsoniy erk va baxt semasi:** Pir nutqida erk tushunchasi jahongirlik maqsadi bilan kognitiv uyg‘unlashadi: *“Jumla mo‘minlarni, bandalarni baxtli qilmakning yagona yo‘li jahongirlikdur! ... Insholloh, xalqni gumrohlik zulumotidan hidoyat oftobiga chiqarmak, abadiy jaholat changalzoridan cheksiz saodat chamanzoriga yetkazmak aning qutlug‘ mukofoti bo‘lur!”* (1-kitob, 60-bet). Bu yerda erk – insoniyatni zolimlar zulmidan qutqarib, umumjahon tinchligini ta’minlash vositasi sifatida kognitiv mazmun kasb etgan.

Tatbiq etilgan konseptual va kontekstual tahlillar roman-epopeyada ushbu makrokonseptlar o‘zbek tilining boy sinonimik, frazeologik va badiiy-ko‘chirma imkoniyatlari yordamida yuksak mahorat bilan ifodalanib, yaxlit milliy-madaniy lisoniy manzarani tiklashga xizmat qilganini isbotlaydi.

Konseptual qatlam	Til birliklari	Semantik mazmuni	Badiiy vazifasi
Yadro	*Vatan, yurt, tuproq*	Ajdodlar maskani, muqaddas zamin, milliy o‘zlik va e’tiqod timsoli	Vatan konseptining asosiy semantik markazini tashkil etadi.
Yaqin periferiya	*Saltanat, iqlim, davlat*	Davlatchilik, siyosiy makon, Turon g‘oyasi	Vatan tushunchasining tarixiy-siyosiy mazmunini kengaytiradi.
Milliy-madaniy kod	*Ko‘k bayroq, mis nog‘ora*	Mustaqillik, hukmdorlik, davlat sha’ni va ramzlari	Milliy qadriyatlar hamda davlat ramziyligini ifodalaydi.
Erk konseptining yadrosi	*Ozodlik, hurriyat, erk*	Siyosiy mustaqillik, ijtimoiy adolat, erkin hayot	Erk konseptining asosiy semantik markazini hosil qiladi.
Frazeologik periferiya	*Bosh ko‘tarmoq, nomusni saqlamoq*	Istibdodga bo‘ysunmaslik, milliy g‘ururni himoya qilish	Qahramonlarning ruhiy-axloqiy pozitsiyasini ochib beradi.
Metaforik periferiya	*Kishanlarni parchalash*	Ozodlik uchun kurash, zulmni yengish	Erk g‘oyasini metaforik obraz orqali kuchaytiradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar Muhammad Alining individual-badiiy diskursida dunyoning lisoniy manzarasi va milliy-madaniy kodlar o‘zaro dialektik munosabatda ekanligini ko‘rsatadi. Muallif uslubida “Vatan” konsepti oddiy geografik xususiyatga ega bo‘lgan denotativ ma’nodan asar matnida qadriyat va muqaddaslik maqomiga ega bo‘lgan yaxlit bir g‘oyaga aylanadi. Matnda faol qo‘llangan *“Turon zamin”* va *“ajdodlar qo‘nim topgan zamin”* kabi birikmalar milliy dunyoqarash asosini tashkil etuvchi etnomadaniy stereotiplar bilan uzviy bog‘lanadi. Bu esa badiiy matn tizimida leksik birliklarning semantik hajmi kontekstual omillar ta’sirida naqadar kengayishini lingvistik jihatdan isbotlaydi. Amir Temurning poytaxtni ko‘chirish borasidagi o‘gitlari shunchaki siyosiy qarash emas, balki til tizimidagi xalqning tarixiy xotirasi va davlatchilik kodini aks ettiruvchi konseptual struktura elementidir. Pir Mir Sayyid Baraka nutqidagi *“havorang bayroq”* va *“mis nog‘ora”* kabi moddiy realiyalar esa matn ichida o‘zining birlamchi nominativ vazifasini yo‘qotib, milliy davlatchilik daxlsizligi, el-yurt erkiga egalik hamda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini ifodalovchi yirik lingvokulturologik ramzlar sifatida semantizatsiyalashadi.

Asarda “erk” konsepti individual va ijtimoiy-siyosiy mikrokonseptlarning murakkab ierarxik tizimi orqali voqelanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, badiiy diskursda “erk” to‘g‘ridan-to‘g‘ri “adolat” makrokonsepti bilan kognitiv bog‘liqlikda zohir bo‘ladi. Bu munosabat *“Erksiz yurtda adolat, adolatsiz yurtda erk bo‘lmas”* falsafiy-huquqiy tamoyili orqali pragmatik jihatdan asoslanadi. Muallif qahramonlarning milliy g‘urur va ozodlik uchun isyonini ifodalashda tilning ekspressiv imkoniyatlaridan, xususan, *“bosh ko‘tarmoq”*, *“kishanlarni parchalash”* kabi frazeologik va metaforik periferiya vositalaridan unumli foydalangan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romanida “vatan” va “erk” konseptlari asarning g‘oyaviy mazmunini ifodalovchi muhim lisoniy birliklar sifatida voqelanishini ko‘rsatdi. Mazkur konseptlar matnda bevosita nomlovchi leksemalar bilangina emas, balki sinonimik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar hamda milliy-madaniy ramzlar orqali ham ifodalangan. Tahlil jarayonida “vatan” konseptining tarixiy xotira, davlatchilik va milliy o‘zlik, “erk”

konseptining esa adolat, mustaqillik va ozodlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda badiiy talqin etilgani aniqlandi. Bu esa badiiy matn konseptlarini o‘rganishda ularning kontekstual va semantik xususiyatlarini hisobga olish muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Лакофф Ж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.
2. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
3. Слышкин Г. Г. От текста к концепту: Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – М.: Academia, 2000. – 128 с.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor, 2006. – 92 b.
5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 3. – B. 3-16.
6. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tahlili. – Toshkent: Fan, 2013. – 134 b.
7. Ashurova D. U., Galieva M. R. Stylistics of Literary Text. – Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 204 p.
8. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – Toshkent: Sharq, 2012. – 288 b.
9. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. 1-kitob: Jahongir Mirzo. – Toshkent: Davr press, 2019. – 448 b.
10. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. 2-kitob: Umarshayx Mirzo. – Toshkent: Davr press, 2019. – 413 b.